

“QISASI RABG‘UZIY” ASARI YARATILISHI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Hamdamov Ulug‘bek Hasan o‘g‘li

TerDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7450472>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Qisasi Rabg‘uziy” asari yaratilishi va o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi asosli fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan. Maqola so‘ngida xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: asar yaratilishi, turkiy adabiyot, yodgorlik, janr, tushuncha.

СОЗДАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ҚИСАСИ РАБГУЗИ» И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье рассказывается о создании произведения «Қисаси рабгузи» и его особенностях. Обоснованные мнения и комментарии в рамках темы цитируются на протяжении всей статьи. Выводы и предложения даны в конце статьи.

Ключевые слова: создание произведения, турецкая литература, памятник, жанр, концепция.

CREATION OF THE WORK "QISASI RABGHUZI" AND ITS FEATURES

Abstract. This article talks about the creation of the work "Qisasi Rabguzi" and its features. Reasonable opinions and comments within the scope of the topic are cited throughout the article. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

Key words: creation of a work, Turkish literature, monument, genre, concept.

Ma‘lumki, Nosiruddin Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asarini yozish bilan turkiy adabiyot tarixida badiiy nasrning ilk va nodir namunasini yaratdi. Bu asar tuzilishi jihatidan ham, mazmuni, g‘oyasi, obrazlar tizimi, badiiy nafosati, turli adabiy janrlar poetik unsurlarining qorishib kelishi nuqtayi nazaridan ham o‘ziga xos manbadir. Mazkur yodgorlik mavzu nuqtayi nazaridan boshqa shu silsiladagi asarlardan farq qiladi. Unda adib diniy syujet, voqea-hodisalarni aynan keltirmay, ularni o‘z ijodiy niyati, ijtimoiy-ma‘rifiy ideali bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlagan. Inson umri, jamiyat taqdiri va ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hayotiy voqealar tasviri yordamida ochib beriladi. Demak, bu kitob turkum syujetli badiiy ijod namunalari-ga yaqin turadi. Asardagi qator janrlar - qissa, hikoyat, rivoyat, latifa, hikmat, xabar, foyda, munajat va boshqa bir qancha janrlar borki, ular o‘zaro ta‘sir jarayonida “Qisasi Rabg‘uziy”ning To‘qbug‘abek orzu qilgan “o‘qumog‘a keraklik, o‘granmakga yarog‘lig”¹³ asar sifatida yaratilishiga xizmat qilgan. Har bir janr alohida ajralib qolmay, boshqa bir janrning mohiyatini ochishga yoki janrda qo‘yilgan maqsadni tushunishga xizmat qiladi. Boshqa o‘rinlarda ham turli janrlar har doim hikoyatda aytilgan g‘oyalarni tasdiqlashga xizmat qilishini ko‘ramiz.

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir qissa tarkibida bir necha janrlarning mavjudligi Rabg‘uziyning bu asarni yaratishdan maqsadini ayon qilgan. Rabg‘uziy mukammal, keng omma tushunadigan agiografik asar yaratishni ko‘zlagan. Barcha qissalar tarkibida kichik janrlar, jumladan, hikoyat, xabar, savol-javob janri bor. Umuman, “Qisasi Rabg‘uziy”ning tuzilishi va janr xususiyatlari o‘ziga xoslik kasb etadi va asarni bir necha janrlar doirasida o‘rganish talab etiladi. Rabg‘uziy o‘z asariga o‘zbek mumtoz adabiyotida yoki turkiy adabiyotda o‘zigacha

¹³ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991

uchramaydigan latifa, foyda, savol-javob, bashorat, munojot kabi bir qator janrlarni olib kirdi. Biz bu parchalarni adabiy janrlar deb ataymiz.

XIV asrda Xorazmning Raboto'g'uzida yashagan Nosiruddin Burxonuddin Rabg'uziyning shaxsi, u yashagan joy haqida izlanish olib borayotgan olimlar To'qbug'a beklik qilgan qal'a – Raboto'g'uz hozirgi davr yodgorliklari ro'yxatida To'qqala nomi bilan qayd etilib, u hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanida joylashganligini aniqlashgan¹⁴. Shuningdek, adib hayoti va uning bizgacha yetib ketgan yagona merosini tadqiq etish, undagi qissa, hikoyat, rivoyat, she'riy janrlar, latifa, hikmat, kabilarning asarda tutgan o'rnini tahlil qilishda ilmiy xulosalar ham berilyaptiki, u ham Rabg'uziy ijodini o'rganish bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotganligini isbotlaydi¹⁵.

O'z davrining bilimdoni bo'lgan Nosiruddin Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" asarini yozishda diniy manbalarni o'rganish bilan birga og'zaki ijod ta'sirida yuzaga kelgan yozma adabiyot namunalaridan ham foydalangan bo'lib, o'ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan "Qisasi Rabg'uziy" "XIV asrdagi o'zbek badiiy adabiyotining saviyasi, darajasi va kuchini ko'rsatib beruvchi"¹⁶ asar "hijriy 710 yilning Hut (milodiy 1310-1311 yil 21 fevral - 21 mart) oyida"¹⁷ yozib tugallangan.

Adabiyotshunos olim I.Ostonaqulov o'zining "Qisas ar-Rabg'uziy" - adabiy asar" nomli tadqiqotida asar manbasini ikki turga: adabiy va tarixiy manbalarga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radi¹⁸. Biz ushbu fikrni ma'qul deb hisoblaymiz, biroq o'rta asr adabiyoti haqida so'z ketganida "Qadimgi va o'rta asrlardagi yozma adabiyot xalq og'zaki ijodisiz rivojlanishi mumkin emasligini"¹⁹ to'g'ri ta'kidlagan tadqiqotchi M. Kurbanliyazovning fikrlarini e'tirof etmaslikning ham iloji yo'q. Ana shu ikki yondashuvni umimlashtirib, "Qisasi Rabg'uziy"ning shu kungacha mashhur bo'lishida "din – folklor – adabiyot" uchligining o'rnini muhim degan xulosaga keldik. Aynan ana shu uchlikning yaxlitlashuvi asarning qariyb VII asrdan buyon kitobxonlarning qo'lidano qo'ymay o'qishlariga sabab bo'lgan.

Asar tarkibidagi qissalar o'rtasidagi umumiylik payg'ambarlarga xos sifatlar, ularning Alloh tomonidan yuborilgani, jamiyatda avj olgan zararli illatlardan insonni qaytargani hamda dinni ahamiyatini tushuntirgani "Qur'on" oyatlari, hadislardan olingan ibratli hikoyatlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'ziga xos uslubda ifodalanadi. Shuningdek, muallifning ifoda tarzi ham muayyan badiiy-estetik tamoyillarga asoslanadi, ya'ni adib payg'ambarlarning hayot yo'lini tasvirlashdan avval ularning sifatlarini va mo'jizalarini ertak hamda dostonlarda yetakchi bo'lgan saj' usulidan foydalanadi. Badiiy adabiyotda "qo'llangan saj' esa o'z xarakteri jihatidan juda ham mukammal bo'lib, sajlangan har bir so'z u yoki bu shaxs sifatlarini ochib berishga xizmat qiladi"²⁰. Asar muqaddimasida payg'ambarlar faoliyati umumiy obzor tariqasida she'riy shaklda beriladi. Asarning mazmuni, badiiyligini kuchaytirish, munozarali voqea hodisalarga aniqlik kiritish maqsadida adib tasvir jarayonida bir janr ichida boshqasini keltirib, asarning ta'sirchanligini oshirgan.

¹⁴ Zohidov P. Kun tug'ardino kun botarg'a so'zi yetgan zot. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2002 yil 9-sonidan olindi.

¹⁵ Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: 2017. – B. 231- 253

¹⁶ Rasulev X. Xalq fantaziyasi izlarining ko'rinishi // Adabiy meros. – Toshkent, 1986. – 2-son. B. 30

¹⁷ Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991. – Б. 7

¹⁸ Ostanaqulov I. "Qisas ar-Rabg'uziy" – adabiy asar: Filologiya fanlar nomzodi...dis. T.: 1993. – B. 35

¹⁹ Kurbanliyazov M. "Qisasi Rabg'uziy"da folklorizmlar// O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 2016 y. 3-son. – B. 69

²⁰ Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. – T.: Fan, 1978. – B. 94

O'zbek badiiy tarixi yuzasidan izlanishlar olib borgan M.Abduvohidovning fikricha : “Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir hikoyat o‘zicha mustaqil asardir. Uni alohida olib qaraganda har bir hikoyat bizda original asardek taassurot qoldiradi. Shularni e’tiborga olib Rabg‘uziyning ushbu qissasini hikoyatlar to‘plami deb atash mumkin”²¹. Bu fikr zohiran haqiqatga yaqin bo‘lsa-da, unga qo‘shilib bo‘lmaydi. Negaki, “Qisasi Rabg‘uziy” shunchaki hikoyatlar to‘plami emas. Asarning syujet va kompozitsiya jihatidan yaxlit ijodiy maqsad asosida yaratilgani, payg‘ambarlar hayotiga oid qissalarning yagona mantiqqa asoslangani, bir-birini to‘ldirib kelishi fikrimiz isbotidir. O‘sha davr nuqtayi nazarini bilan qaraganda “til jihatidan “Tafsir”, “Xusrav va Shirin”, “Nahj ul-farodis”, “Siroj ul-qulub” obidalariga yaqin turuvchi “Qisasi Rabg‘uziy” O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida “Qisas ul-anbiyo” nomi bilan mashhur bo‘lgan”²² va turli davrlarda bir necha nusxada ko‘chirilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan o‘rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqllarga Qur‘on va boshqa diniy kitoblardan, tarixiy asarlar va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo‘lib, ular turkiy epik an‘ana ta’sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi²³. Mazkur davr o‘zbek adabiyoti Mo‘g‘ul istilosining og‘ir natijalari oqibatida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi bilan diqqatga sazovordir. Jumladan, nasr ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi. Asar garchi anbiyolar to‘g‘risidagi majmua bo‘lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o‘laroq, o‘zida dunyoviy mayllarning, xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi. “Qisasi Rabg‘uziy”ning tarkibiy tuzilishi haqida ba’zi adabiyotlarda “inson va uning hayotiga bog‘liq bo‘lgan mavhum va tafsilotlarni kichik-kichik hikoyalar vositasida mahorat bilan ifodalanganini ko‘ramiz” qabilidagi fikrlar qayd etiladi. Lekin, umumiy fikrlarga ko‘ra, Rabg‘uziy Islom dini tarixi asosidagi yaxlit asar (qissa) yaratgan. Asar nomidagi “qisas”²⁴ atamasi nisbiydir. Chunki Rabg‘uziygacha bo‘lgan adabiyotda nasriy asarlar birgina shu atama bilan yuritilgan. Qolaversa, Alloh taolo olam va Odamni yaratishdan maqsadi o‘z xalifasi qilib belgilagan Insonning boshqa xilqatlar orasida tutgan o‘rni; insoniyat hayotining murakkab ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy ziddiyatlari, muammolari va ularning adib badiiy talqinidagi yechimlari rang-barang voqealar tasviri tizimida yoritilgan. Bu qissani birgina Muhammad alayhissalom haqidagi badiiy asar sifatida ham baholash mumkin. Zero, qaysi payg‘ambar haqidagi voqealar tasvirlanmasin, uning Muhammad alayhissalomga aloqasi borligi yaqqol ko‘rinib turadi. Jumladan, Is’hoq as.ning tug‘ilishi voqeadan quyidagi epizodni keltirish mumkin: *“To‘quz oy o‘n kundan so‘ng Is’hoq as. tug‘di. Ul kecha ming yulduz Ibrohim payg‘ambar tegrasinda yig‘ildi. Ibrohim as. munajat qildi: Ilohiy, bu ne alomat turur? Yarlig‘ keldi: Ey Ibrohim bu Is’hoq otlig‘ o‘g‘lungdin ming payg‘ambar bo‘lg‘usi turur. Ibrohim sevindi, Mavlo taolog‘a shukr qildi. Aydi: Ilohiy, Is’hoqg‘a (as.) muni berding, Ismoilg‘a (as.) ne karomat qilursen? Yorlig‘ keldi: Ey Ibrohim, Ismoilni manga topshurg‘il. Ismoilin bir payg‘ambar zohir qilg‘aymen, Muhammad otlig‘. Agar ul payg‘ambar bo‘lmasa erdi, hech payg‘ambar bo‘lmag‘ay erdi, sen ham bo‘lmag‘ay erding”*²⁵.

Asarning aksariyat o‘rinlarida *Qamug‘ini aning sevukluga uchun yaratdim* degan jumлага duch kelamiz. Demak, barcha payg‘ambarlar qissasi Muhammad a.s.ning payg‘ambarlik

²¹ Abduvohidova M. Rabg‘uziy va o‘zbek klassik prozasi. – T.: Adabiy meros, 1988. 4-son. – B. 36

²² Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 6

²³ Vohidov R va Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: 2006. – B. 231- 253

²⁴ Asar nomidagi “qisas” so‘zi arabcha “qissa” so‘zining ko‘pligi – qissalar ma’nosini anglatadi.

²⁵ Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 83

mohiyatini anglatishda vosita kabi xizmat qiladi. Deyarli barcha ilmiy va o'quv adabiyotlarida "Qisasi Rabg'uziy" 72 qissadan tarkib topgani ta'kidlanadi. Aslida asarda Qur'oni Karim va Hadislarda zikr qilingan 25 payg'ambar tilga olinadi va ularning qissalari hikoya qilinadi. Bu payg'ambarlar davrlarida sodir bo'lgan va arab hamda yahudiy xalqlari orasida keng tarqalgan voqealar ularning qissasiga adib talqinida alohida sarlavha bilan kiritiladi. Ularning har birini alohida qissa sifatida talqin qilish unchalik to'g'ri emas. Masalan, Chigirtka qissasi sarlavhasi ostida berilgan matnda chigirtka obrazi yo'q. Umumiy matn orasida chigirtkalarining yeyilgani va ularning qirilib ketishi haqidagi hadisni eslatib o'tish bor, xolos. Asarda asosiy mavzu inson omili, inson qadr-qimmatiga e'tibordir. Asarda *"Valaqad karramno bani Adama..."* ("Biz Odam avlodini mukarram qildik") oyati bosh g'oya qilib olingan va shu g'oya asar so'ngigacha rivojlantirib boriladi. Shu bilan birga kishilar va jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy nuqsonlarni bartaraf etish, barkamol inson tarbiyasi masalasi ham diqqat markazidan qochirilmaydi.

Odam alayhissalom qissasida yuqoridagi bosh g'oyaga muvofiq Odamga Yaratganning muhabbati, rahmati va izzat-ikromini tasvirlash bilan birga ma'naviy yuksalishda muhim bo'lgan insoniy muhabbat tuyg'usiga boshdanoq alohida sahifalar ajratadi. Muhabbat Odamni bezovta qiladi. Lekin bu bezovtalik yorug'likka, ko'ngil munavvarligiga intilish bezovtaligi edi. Qissaga zarb qilingan Qobil va Hobil hikoyasi Odam va Havvo muhabbatiga zid o'laroq uning ezgulik yo'lidagi ma'naviy mushtaraklik ekanini tushunmaslik oqibati aks ettiriladi. Adib birodarkushlikning insoniyat tomonidan hech qachon kechirilmasligi, abadiy la'natlanishi, hatto, birodarkush avlodlarining ham badnom va baxtsizlikka muhtalo bo'lishini kichik-kichik lavhalarda qayta-qayta qalamga oladi. **Shis alayhissalom** qissasida insonning eng zarur moddiy ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi harakatlariga tahsin g'oyasi yoritiladi. **Idris alayhissalom** qissasida jamiyat taraqqiyotida ta'limning ahamiyati uqtiriladi. Shuningdek, bu qissada har qanday jamiyat nuqson-gunohlardan xoli bo'lmasligi, agar farishta bo'lsa ham insoniyat jamiyatiga tushsa, bilib-bilmay gunoh, qabih ishlar bilan ham shug'ullanib qolishi mumkinligi, bundan najot faqat tarbiya ekani qiziqarli hikoya qilinadi. **Nuh alayhissalom** qissasining qisqacha mazmuni olamning najotkori ham, halokati ham inson, uning ezgu va qabih qilmishlari ekani bilan izohlanishidan iborat. Unga ilova qilingan Avj ibn Unuq haqidagi hikoya ba'zi kimsalarning benihoya katta savlati, bemisl kuch-quvvati ham, uzoq umr ko'rishi ham jamiyatda hech qanday ahamiyat kasb etmasligi, balki zararli bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi. **Hud alayhissalom** qissasida esa bir shaxs emas, butun jamiyatning qudrati qanchalik oshib, Eram bog'larini qurib unda istirohatlar qilmasin, ma'naviyat masalasini unutishga haqqi yo'qligi ta'kidlanadi. Shuningdek unda tabiatni mutlaqo bo'ysundirib olish mumkin emasligi ham uqtiriladi. **Solih alayhissalom** qissasida jamiyatda avlodlar almashinuvi hech bir yo'l bilan boshqarilmaydigan jarayon ekani, u vaqt o'tishi bilan to'g'ri yo'lga solib turilmasa, bir vaqtlar fazilat hisoblangan xususiyatlar ham bora-bora gunohga aylanishi va oxir-oqibat halokatga sabab bo'lishi haqida so'zlanadi. Yangi avlodlar tomonidan ilgari surilayotgan ezgu g'oyalarni inobatga olish, kerak bo'lsa turmushga tatbiq qilish lozimligi; ezgu g'oyalar o'lmasligi, muayyan hududda qabul qilinmasa-da, yaqin-yovuqda uning tantanasi ko'rinishi talqini o'zining go'zal ifodasini topgan. Boshqa qissalardagi kabi unda ham e'tiqodning nozik masala ekani uqtiriladi. Bu masala quyidagi qiziqarli voqea orqali eslatiladi: *Hijozda Xanda ibn Umar ismli kishi maliklikka ko'tariladi. U o'zi uchun qizil oltindan, ko'zlari yoqutdan bir but yasatadi. Bu*

butning to'rt tomonida to'rtta yuzi bor edi. Biri odam, biri arslon, biri qush va biri ot suratli edi. U odamlarni bu butni ko'rish va unga sig'inish uchun yig'diradi va to'rt tomondan kiritadi. Uni ko'rib chiqqan odamlarning har biri o'zlari ko'rgan tomon haqida so'zlab bahsga kirishib ketadilar. Bahslar janjalga aylanib, ko'p kishi qirilib ketadi. Xanda odamlarga bu ishni dushman ham qilmasligini aytganda ular odamlarning janjaliga, to'qnashuviga sabab bo'luvchi butning aslo keragi yo'qligi haqida aytadilar. Unda yagona xalq bo'lib yashashning asosiy shartlaridan biri e'tiqod birligi ekani ta'kidlanadi. **Ibrohim alayhissalom** qissasi hajman yirik, tarkiban murakkab bo'lib, o'zida bir necha mavzularni jamlaydi. Jumladan, haqiqat yo'liga qancha to'siq qo'yilmasin, uni yo'qotib bo'lmasligi (Ibrohimning o'tda yonmasligi), inson eng ulug' qadriyat ekani va uni qurbonlik qilish jaholat ekani (Ismoilning qurbonlikka olib borilishi), saxovat, mehr-oqibat kabi bir qator mavzular ramziy voqealar orqali yoritiladi.

Qissalarda kasb va halol nasiba alohida ta'kidlanadi. Rabg'uziy halollikning ijtimoiy ahamiyatiga diqqat qaratayotgani masalaning podsho-payg'ambar va Alloh o'rtasida ko'rilyotganida namoyon bo'ladi. Dovud haqidagi qissada shunday ibratli lavha bor: *"Dovud yalavoch tunla o'zin belgusiz qilib ra'iyatlardan so'rar erdiki, podshoh sizning birla netak muomila qilur? Aytur erdilar: Yavloq odil turur. Bir kecha andog' so'zlayurda Mavlo taolo bir farishtani izdi, bir qurtqa (kampir) surati uza. Andin so'radi: Podshohingiz netak turur? teb. Qurtqa aydi: Yavloq odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur. Dovud duo qildi: "Iziyo, manga bir harf (kasb) o'gratgil. Aning birla qazg'achimni yeyayin. Xalq mani so'zlamasunlar". Mavlo taolo bir taqachilik sanoatin anga o'gratu berdi. Aymishlar, temur Dovud ilkinda mumtek yumshar erdi"*²⁶. Bir gunoh ikkinchi gunohni boshlab keladi. Shuning uchun ularning birinchisiniyoq yaqinlashtirmaslik lozimligi, shuningdek, baxillik, ochko'zlik va badgumonlik eng tuban qilmishlardan ekani Qorun haqidagi hikoya orqali beriladi: *"Mavlo qudrati birla Qorun yetti tun-kun oltunchiliq qildi. Ganjlardan xazinalar o'rnatti. Tekma bir ganjga bir oltun kalid qildurdi. Kalidlar ko'p bo'ldi. Ko'tarmoq og'ir bo'ldi. Qachirg'a yukladilar, qachir ko'tarmadi"*²⁷, deyiladi. Shuncha boyligi bo'lsa ham, Qorunning ko'zi och edi. U boyligidan faqir kishilarga nafaqa berishga baxillik qilar edi. Muso payg'ambar Qorunga molidan muhtoj kishilarga nafaqa beirishni aytganda, u ko'nmadi. Qorun Musodan qutulishni o'yladi, payg'ambarga tuhmat uyushtirdi: *"Bir kun Qorun bir Shamit otlig' arig'siz urag'utga ming oltun berdi. Taqi aydi: "Borg'il, Muso majlis tutar yerda xalq qoshida ayg'il: "Ey Muso, sen o'zgalarga o'gut berursan. O'zing maning birla tong otquncha nelar qilding, xamir ichting. Emdi kelib xalqg'a ne o'gutlar berursen". "Shamit ming oltunni oldi, Musog'a keldi. Ul ming oltunni kelturub Muso o'nginda qo'ydi.. taqi aydi: "Muni manga Qorun berdi. Borg'il, Musog'a bani Isroil qatinda mundog' tegil teb. Emdi keldim, tavba qildim"*²⁸.

Umuman, "Qisasi Rabg'uziy"dagi har bir qissa yoki hikoya ulardagi majozlar hisobga olinib tahlil qilinsa, diniy va dunyoviy g'oyalarning ajoyib ma'rifiy mushtarakligini ko'rish mumkin. Asarni ana shunday talqinda o'rganish diniy materiallarning ham majoziy xususiyatlarini to'g'ri tushunishga imkon beradi.

²⁶ Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 28

²⁷ Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991. – Б. 12

²⁸ Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – Б. 13